

AHMAD A'ZAM

ALMISOQDAN QOLGAN KARIM

Hikoya

Karim — pastakkina, korimsizroq yigit, lekin juda kuchli, chayir; mushtumlari yum-yumaloq, toshdek qattiq. Karim tosh kotarib, espander bilan qollarini rosa pishitgan. Agar ikkita yong'oqni kaftida siqsa, yong'oqlar ezilib, mag'zi pochog'iga otib ketardi. Qalpini topib ursa, har qanday yigitni ham qulatadi. Paxtada, yotoqni tozalashga o'zining orniga uni majburlamoqchi bo'lganda, fakul tet-ning eng urishqoq, boychan yigitlaridan biri — kattaqorg'onlik Iskandarni qalpini topib bir urgan, yaxshi hamki, devor bor ekan, bo'lmasa, Iskandar uchib tushardi. Agar shunda Iskandarning sherigi Qodir Karimni mahkam quchoqlab olmaganda, Karim uni chatoq qilardi. Lekin, bari bir, Qodir qoyib yuborgandan keyin u hech narsa qilolmadi — ular zorlik qilishdi. Alamdan Karimning ko'ziga yosh keldi. Xorlikdan emas, alamdan: kuchi bo'laturib boyining pastligidan, shunday baquvvat qollarining kaltaligidan, raqiblarining ikki kishiligidan, kursdoshlarining hammasi bundan bexabar, tashqarida — maktab hovlisida qiyqirib futbol o'ynayotganidan, bularni derazadan korib qolgan Manzuraning chinqirib yuborganidan, yana bitta — juda muhim sababdan yig'lab yubordi.

Bu gap shtabga borib yetdi. Manzura: “Kursdoshimiz Karimni uchinchi kursdagi Iskandar bilan Qodir tentak rosa urishdi”, deb qizlarga sotib qoyibdi; faolligi oshib-toshib yotganidan o'zini yana nima masalalarda korsatishni bilmay yurgan Salima shtabga borib aytibdi. Dekan paxtadagilarning ahvolidan xabar olgani shu kuni kelgan ekan, bu gapni eshitgan zahoti uchalasini ham chaqirtirdi. Iskandar haydaladigan edi, g'irromlikka o'tdi, olaman sattor, oldin o'zi urdi, deb isboti uchun shishib turgan yuzini pesh qildi, og'zini ochib korsatdi: Karimning bir urishidayoq uning lunji ichidan taram-taram qirqilib, hamon qontalash bo'lib yotgan ekan.

Dekan Iskandar bilan Qodirning bir oylik stipendiyasini olib tashladi. Biroq, buning Karimga issig'i ham, sovug'i ham yo'q edi. “Mayli, ular stipendiyasini olsin, menga bari bir. Lekin bir kun emas, axir bir kun Iskandarning yakka o'zi qolimga tushib qolar-ku”, dedi.

Iskandarni yakka qolga tushirganda Karim nima qilishini o'zi bilardi-yu, ammo vaziyat o'zgarib qoldi — Iskandar shu kuni oqshom jorajonlaridan oltitasini ergashtirib, ularning yotog'iga bostirib kirdi. endi uxlamochi bo'lgan Karimni kutkilashib, ortaga olishdi. Bu yog'i tushunarli edi, yo'q agar Adham bo'lmaganda, bu yog'i nima bilan tugash o'z-ozidash ma'lum edi.

Ana shunda Adham özini korsatib qoldi, shu bilan hammani hayiqtirib, Karimning hayotiga, ichki sirlariga aralashib ketdi. Karimning esa hech kimga aytmagan, aytolmaydigan bitta ichki siri bor edi. Va bu sir juda muhim edi.

Xullas, Adham ana shunda oraga tushdi. Iskandar joralari bilan bostirib kiringanda boshqa bolalar qorqib ketishdi (birinchi kursda), Adham esa kichkina egovcha bilan tirnog'ini tozalab otirgan edi, indamay qozg'aldi-da, Karimning yoniga kelib, uni Iskandarlardan tosib oldi va goyo berda hech gap bo'lmayotgandek, bamaylixotir tirnog'ini tozalayverdi. Boshi og'ib, kimqaylardan adabiyot fakul tetiga tushib qolgan xumkalla, g'irt bezori Ma'ruf uni turtib, "San bola, nari tur", deganda, Adham kiprik qoqmay, xoppasemiz, ayiqpolvon Ma'rufga shunday dedi: "Qolingni tort. Kuchim bor, deb ovora bolma, qol kotarganing zahoti kekirdagingni sug'urib olaman. Keyin, geofakdagi "Bayron"ni, "Chingizxon"ni bilasanmi? Bilsang bopti-da!"

Shu gapdan song Ma'ruf negadir birdan chokdi, boshqalarining ham shashti sonib qoldi. Iskandar Ma'rufga qaradi, Ma'ruf esa sheriklariga moltirab tikildi. "Bu xotinlik,— dedi Adham shuncha gap etmagandek. — Bir kishiga etti kishi bolib kelish — xotinlikning ozginasi. Albatta, hozir Karimni, Karimga qoshib, kim biladi, balki meni ham urarsizlar. Lekin ertaga... ertaga boshqatdan boshqacha gaplashamiz". :

Keyin murosayu madora boshlandi: ular Karimni tinch qoyadigan, Karim ham Iskandarga indamaydigan boldi (buni Adham oz ustiga oldi). Ma'ruf Adhamni qoyarda qoymay tashqariga sudradi. Ular nimani gaplashishdi — buni hech kim bilmadi. Qaytib kirishganda Ma'ruf Adhamning elkasidan dostona quchmoqchi edi, Adham uning qolini siltab tashladi. Shuncha gap-sozning orasida Adham qolidan yaltiroq egovchani tushirmadi, puflab-puflab tirnog'ini tozalayverdi.

Hammanilg kuzi, bor hayronlikning sababi shunda bo'lgandek, egovchadan uzilmadi.

Xullas, janjal bosildi. Lekin Karimning qoli, Adhamning yuragi baquvvatligini hamma bildi.

Karimning yuragida gap bor edi.

"Bayron" bilan "Chingizxon"ning kimligini Karim ertasi kuni Adhamning ozidan bildi. "Bayron"— geografiya fakul tetining tortinchi kursidagi Qobil, "Chingizxon" esa uning jorasi Turmuhammad ekan. Karim ularni bir marta korgan: Qobil ozg'in, oqsoq bola; silliq, chozinchoq yuzi nimasi bilandir chindan ham shoirlarga oxshab ketadi. Turmuhammad — qiyiq kuz, mog'ulbashara, haybatidan odam hurkadi. Uning-ku zorligiga ishonsa boladi, gavdasining ozi kimligini shundoq korsatib turibdi. Lekin Qobilning nimasi odamni chochitar ekan, buni Karim bilolmadi.

Adham ham buni tushuntirib aytmadi, Karim ham sorashni noqulay deb topdi. "Lekin, oshnam, bizniki ham nomardlik boldi,— dedi Adham,— nom sotdik. Boshqa chora yoq edi-da".

Shunda Karim Adhamni birdan yaxshi korib ketdi, Adhamning nimasidir uni o'ziga rom qilib oldi. “yakkama-yakka chiqqanda, Ma'rufni urarmidingiz?”, deb soradi Karim — shu topda u Adhamning Ma'rufga bas kelishiga ishonardi. Adham ma'yus iljayib qoydi. “O'sha hokizni-ya! Bir kalla ura, qaytib onglanmasam kerak,— dedi.— Men nimani nomardlik deyaqman—kuchim etmasligini bilib turib, “Bayron” bilan “Chingizxon”ni oraga solganimni-da. Lekin endi bular bilan shunaqa gaplashish ham kerak”.

Karim aytmashligi kerakligini yaxshi bilib tursa ham, bari unga yaqinlashgisi kelganidanmi yoki kechagi himoyasi uchun o'zicha minnatdorchilik bildirmoqchi bo'ldimi, ishqilib, Adhamga konglini ochdi: hech kimga sezdirman, bildirmagan yurak sirini — Mohbibini yaxshi korishshsh tutila-tutilla aytib berdi. Adham esa u kutganchalik ochilib gaplashmadi, faqat: “Ha-a”, dedi-yu, g'alati qarab qoydi.

Karim sirini berib qo'rganiga afsuslandi. Afsuslangani zahoti shu gaplarni aytib Adhamning domiga tushganini, nima uchundir bundan song unga bo'ysunib yurishini his etib, kongli ezildi,

Adham uni echintirib qo'rgan edi. Uning yuragi yalang'och, himoyasiz qolgan edi.

Shu voqeaga, mana, ikki yarim yil bo'ldi. Vu orada Karim bilan Adham uzoqlashib ham ketishmadi, yaqin ham bo'lishmadi. Karimning Mohbibiga munosabati esa kuchaygandan-kuchaydi, lekin jilla; ham oldinga siljimadi, ya'ni Karim munday yurak betlab, Mohbibiga dardini yorib kormadi. O'zicha sevib, sevgisidan iztirob chekib, azoblanib yuraverdi. Har ertalab Mohbibini korganida yuragi zirq etar, koxsi kuyishib ketar edi — xuddi birov uning og'zidan ichiga bir hovuch lag'cha chog' tashlab yuborgandek. yozgi ta'tillarni-ku, gapirmang: Mohbibini ikki oy olis Sariosiyosiga, Karim qurilishga ketadi!

Karim uch yildan beri Mohbibiga sevgi izhor qilishni, lof emas, yuz martalar oylab-korgandir. Lekin qanday aytadi! Umrida bungacha biron-bir qieni sevib, unga sevgi izhor qilmagan odam! Ana, aytdi ham deydik. Agar Mohbibini: “Men ham sizni...” deb qolsa-ku, bu eh-he!.. Mohbibining roziligi shu qadar otkir, shu qadar yorqin baxt ediki, Karim bunga ishonishdan ham qorqib ketardi. Xop, yaxshi, Mohbibini ham koxsa, undan song bir gap bo'lar. Har holda, bu yaxshilikka-ku. Lekin, rad qilsa-chi? “Boshqani sevaman, Karimboy, behuda ovora bo'lmang”, desa-chi? Yoq, buni tasavvur qilish og'ir. Karim quvonchiga chidar-ku, biroq qayg'udan tayin oladi Mohbibining rad javobini eshitgandan kora, shun day, hozirgidek uzoqdan yaxshi korib, umid uzmay yurgani yaxshi.

Odamlar nozik-nihol, boychan, xipchadan kelgan qizlarni yoqtirishadi, biroq Qarimga bunaqa qizlar uzun, chillakchopday oriqli, ya'ni xunuk korinadi.

Mohbibini deganimiz esa ismi jismiga mos — on tort kunlik oydek to'lagina, oykulchadek shiringina qiz edi.

Mohbibining shunday chiroyli ismini buzib, “Mabiyi” deb chaqirishlari Karimga juda og'ir botadi. Hamma shunday deb chaqiradi, pasportida shunday

yozilgan ekan. Mohbibiga metrika bergan qay bir chalasavod, kar, tonka kotibning ishi-da bu! Noiloj Karim ham tishini tishiga bosib, Mohbibiga “Mabiyi” deb murojaat kiladi, Lekin u bilan har kuni, har soatda xayolan sozlashganda, albatta “Mohbibibi” deb shivirleydk. “Mabiyi”— “Ma, biyi — biyi, mana buni ol”, degan kabi yafda xunuk eshitiladi, axir.

“Mohbibibi, men sizni sevaman!”

Karim tunni, korpaga kirishni sabrsizlik bilan kutadi, yotgani zahoti boshini korpaga burkab, Mohbibibi bilan shirin-shirin, odamni entiktiradigan suhbatlarni boshlab yuboradi.

“Mohbibibi, men sizni sevaman!”

Mohbibibi indamay bosh egadi, Karim Mohbibining qollaridan ushlaydi, Mohbibibi ozini olib qochmaydi. Mohbibining qollari shunday mayin, yumshoqki... Karim Mohbibining qollaridan ushlab oziga tortadi. Mohbibibi unga tikiladi, kozlarida — “Qoying!” degan hayo. Mohbibibi egilib, yuzlarini bekitib oladi, Karim esa uning yuzini kormoq-chi... Mohbibibi boshini kotarmaydi, faqat Karimning qollarini qisib qoyadi — ohista, beozor...

Keyin... Keyin ular jimgina ketishadi. Mohbibibi Karimning elkasiga bosh qoyadi, sochlari Karimning boynini qitiqlaydi, yoqimli, mast qilg’uvchi hid taratadi...

Mohbibining sochlari qanaqa hid taratadi? U nima bilan bosh yuvar ekan? Birga ketganlaridan song Karim nima deydi? Yigitlar sevgan qiziga ochiq-oshkora, sevaman, deb gapiravermaydi. Sevgi ularning dilida, boshqa narsalarni gaplashib otirishganda esa kozida boladi. Lekin mum tishlab ketaverish ham yaxshi emas-da.

Karim shirin xayolidan yanglishib ketadi-da, hammasini qayta boshdan boshlaydi...

Bilmaydi — qancha yotadi, ishqilib, ne mahalda korpa tagida dami qaytib ketadi-da, boshini ochadi; hamxujrasi Burhonga sezdirmay, sekingina uf tortadi; yana ikki-uch soat uxlolmay, oylanib yotadi.

Uch yildan beri shunday. Uch yildan beri Karim azob chekadi, ortanadi.

endi bu yurak sirining sirligi hamma biladigan oddiy gap bolib qolgan. Yoq, uni Adham yoymadi. Adham ozining orischa kitoblari, sevimli yozuvchilari, bir-ikkita oziga oxshagan dardkashlari bilan bolib, Karimning muhabbatini esga ham olmagandir. Mohbibini yaxshi korishini Karimning ozv bildirib qoydi. Doim Mohbibibi korinadigan joyga otirib olib, u bilan koz urishtirganda lavlagisi chiqib, Mohbibibi biron narsa sorasa, gapidan adashib, sevgisini hammaga ozi oshkor qilib yurdn. Axir, nima qilsin — uch yil natijasiz sevib yurishning ozi boladimi! Ustiga ustak, konglidagisi — kozida, betiga qarasang — ichi korinib turadigan bola bolsa...

yaxshimi, yomonmi, Karim shunday yashab kelayotgan, kuni otayotgan edi. Balki Burhonning bir gapi boʻlmaganda, Karim eski dardini ortmoqlab tortinchi, undan beshinchi kursga va shu koyi — Mohbibiga dardini aytolmay, qishlogʻiga jonab ketarmidi?

Bahorda — qizlar qishlik roʻdapolarini tashlab, avval engilroq yomgʻirposhda, songra koʻzni quvnatib, kongilni ezadigan gunogun koylaklarda darsga qatnay boshlaganlarida, Burhon ijaraxonada olma archib oʻtirib, shunday deb qoldi:

— Shu-u, Mabiyingiz boʻyi pakana boʻlsa ham, istarasi issiqqina, a? yaxshi xotin chiqadi shundan. yo notogʻrimi, Karimboy? Bir gapirib koʻsangiz boʻlardi — keyin mazza qilib yashaysiz: qaynatangiz — sovxoz direktori; institutni qizil diplom bilan tugatgan kuyovtoraning taglarida mashina! Anovi Hayit degani bor-ku, juda olgʻir koʻrinadi qizingizni shu ilib ketar-ov...

Karimni issiqqina uydan qahraton koʻchaga haydab chiqib, bu ham etmaganday, ustidan bir paqir sovuq suv quyib yuborishgandek boʻldi.

— Qaysi Hayit?—dedi u ichi qaltirab.— U... Uning qizi bor emasmi?

Burhon: “Hay oshnam-ey, juda soddasiz-da”, degandek bosh chayqadi, kuldi. Olmadan bir bolak qirqib, pichoq uchida Karimga uzatdi:

— Unga oxshaganlarning qizi bitta boʻladimi! Bugun birovi bilan yursa, ertaga boshqasini aylantiradi.

Karimning tomogʻidan olma oʻtmadi, bogʻzida turib qoldi.

— Hademay bitiradi: bir oy otadi-ketadi,— deya olma kavshab davom etdi Burhon.— Diplomga qoshib sovxoz direktorining qizini ham olib ketsa, nima, xeshib chiqadimi? ey, oshnam, ular yashashni biladi!

Karimning konglida nuqta kabi muallaq yulduz chaqnadi, undan oʻtkir sanchiq taralib, koʻkrak qafasini teshib chiqqudek ogʻritdi.

Nimadir qilish kerak edi! Karim hozir nimadir qilmasa, holi ne kechishini oʻzi ham bilmasdi.

— yana eysizmi?—dedi Burhon.— yaxshi olma ekan. yana bir bolak. Mozorbosdi, Qoʻshrabotdan.

Karim bosh chayqadi.

— Shu qizlarga ham hayronsan,— dedi Burhon.— Qarang, shu Salimacha ham oʻziga topib olibdi-ya. Yigiti, bechora, fizfakda aspirant, domla emish, shoringga shorva tokilgur...

Burhonning jagʻi ochilib ketdi: Salimaning chittakdek ekanligiyu yigitining gʻirt ahmoqligini rosa chaynadi, keyin oʻzining soddagina qishloq qiziga uylanib (oliy maʼlumotlisining nozi-firogʻi ham diplomiga yarasha boʻlib, “Men sendan kam emas”, deb turar ekan), tinchgina turmush kechirish niyatini bildirdi;

qishloqlarida “Burhonjon akam qachon bizga og’iz soladilar”, deb sochini orib otirgan qizlar son-mingta emish.

Karim uning gaplarini diqqat bilan tinglab, ishqilib, yana Mohbibbi haqida gapirib qolmasin, deya yurak hovuchlab otirdi.

Lekin konglidagi og’riq zoraygandan-zoraydi, bunga chidashning sira iloji yoq edi: “Mohbibbi” degan nomning ozi nur orniga sovuq bir og’riq taratayotgan oyga oxshab qoldi — faqat Karimning kongli emas, shu torgina hujra, tashqaridagi keng dunyo ham og’riqqa tolib ketgandek, goyo havo ham tomoqni tirmalab otib, opkaga sanchilar edi.

Karim yotoqqa otlandi. Juda borgisi keldi. Hujrada ortiq qololmas edi.

Kiyinayotib oynaga qaradi-yu, darrov kozi olib qochdi: oynadan korimsiz, beshinchi kursdagi hasip moylovli, jingala sochli, etmish somli jez tugma koylak, ikki yuz ellik somli jinsi shim kiyib yuradigan Hayit — qizlarning “Hayit akajon”iga solishtirganda esa juda xunuk, burunboy bola—ozi qaragan edi.

Shu Burhonlarga oxshab hech kimni sevmay yursa nima qilardi, a? Bu nima azob!

Karim tog’ri Mohbibbilarining xonasiga bordi. Taqillatgan edi, hech kim ochmadi. eshikni itarib korsa, ichkaridan qulflog’li ekan. Birdan xayoliga kelgan mudhish, dahshatli manzaradan ozi ham qorqib ketib, eshikni gursillatib urdi. Saldan keyin zshik qiya ochildi-da, Tursunoyning chochigan, uyquga pishmaganidan ola-kula bolib ketgan kozlari korindi.

— e-e,— dedi Karim.— e-e, uxlab yotuvdinglar-mi? Men...

Tursunoy eshikni qars urib yopib oldi. Karim shundan song ham joyidan qimirlamay, bir-ikki g’oldiradi, yopiq eshikka:

— Kechirasizlar,— dedi.

Lekin konglidagi og’riq birdan qoyib yubordi:

“Uxlab yotishibdi ku! eh, men bolsam...— deb shodlandi u.— Uxlab yotishibdi-ya!” ,“

“Agar eshikni Tursunoy emas, Hayit ochganda nima qilardim? Nima ham derdim?”—sal otmay Karim shunday oyladi. Maykachan, sochlari tozg’igan Hayitning: “Ha, oshna, nimaga biziing ishimizga tumshug’ingizni suqyapsiz?” degandek qarashini koz oldiga keltirdiyu ich-ichigacha qizarib ketdi.

Dahlizning ortasida Adham unga qarab turgan edi.

Karimning koksida nimadir g’archcha qirqilib ketgandek boldi—ixcham-ingichka, Karimdan uzun Adham juda otkir, odam seskanarlik nigohini unga sanchib turgan edi.

Karim tog’ri unga ropara yurdi.

Adham indamay qo'lini chozdi, boshqa biron joyi qilt etmadi. Karim uning qo'lini negadir qattiq qisdi. Adhamdan “ha” bilan “him”ga oxshagan bir tovush chiqdi.

— Shu,—dedi Karim uning qo'lini qoyib yubormay,— ozim...

Adham qo'lini tortdi. Jilmaydi —labidan ip qochdi. Shu ip Karimning boyniga sirtmok bolib tushdi.

— Qani, kiring,— deya Adham ortiga burilib eshikni ochdi.

Karim uning ortidan sudraldi.

Adham turgan xona torgina, ikki kishilik, lekin Adham komendant bilan kelishib, yolgiz o'ziga tog'rilab olgan edi. Xona juda shinam, devordagi trubka tishlagan sersoqol odamning rasmini aytmagan-da, boshqa bironta ortiqcha bezak yoq. Stolda ochiq kitob, bir dasta qog'oz — ustkisining yarmigacha yozilgan.

Xona rangsiz, xira, qorong'iroq; faqat karavotning bosh uchidagi guldor sochiq ko'zga yaqqolroq tashlanadi.

Bilinar-bilinmas tamaki hidi kezadn.

Karim stol yonidagi kursiga otirdi, nima deyishini bilmay, jim qotdi.

Adham xona toridagi yakkayu yagona kresloga chokdi. Derazaga orqa ogirganidan yuzi sirli tus oldi.

“Shunaqa narsalarga pul sarflab, magazindan erinmay kotarib kelganini ayt”, deb oyladi Karim kresloga suqlanib boqar ekan.

Adham dabdurustdan soradi:

— Mabiyyining oldiga keluvdingizmi? Karim talmovsiradi:

— E, yog'-a, ozim shunday...

— Nima, ozim shunday?

“Buning ham Mohbibiga kongli bormi? Buncha tekshirmasa,— deb oyladi negadir Karim.— Menga yol bolsin! Qaysi qiz bunga yoq deydi?”

— Nima, ozim?—deb takror soradi Adham.— yashirishning nima keragi bor? Keldim, deb ayting, hech kim sizni ayblayotgani yoq-ku.

Karim miq etmay boshini egdi, qo'llarini kiyishtirdi.

— Shuni rostdan ham yaxshi korasizmi?—deb yana uni nayzaga ildi Adham.

Karim rad qilgisi keldi-yu, lekin bunga kerakli gap topolmaganidan, noiloj bosh iring'ab, Adhamning gapini tasdiqladi.

— Ha, yaxshi,— dedi Adham bir oz oylanib turgach.— yaxshi korasiz. yaxshi korsangiz, nega shuni o'ziga aytmaysiz? Uch yildan beri nima qilib yuribsiz? E Mabiyyining o'zi kelib, “Karimboy, men sizni sevaman”, deb aytishini kutyapsizmi?

Karimning konglida umid yiltilladi.

— Nima qilay boʻlmasa?

Adhamning jahli chiqqandek boʻldi:

— Gaplashing! Bu yurishdan ish chiqadimi? Nima qilay emish. Biron yoʻlini topib ayting-da!

Karim hozir Adhamning uzoq gapirishini, oʻz tajribalarini soʻzlashini va oxirida Mohbibining koʻnglini olish yoʻllarini birma-bir koʻrsatib bers-shini xohlar edi. Adhamning jahl aralash gapirayotgani ham unga oʻtirishdi, koʻnglida nimadir yumshadi; birdan engil tortib, otasidan tanbeh eshitayotgan boladek, yigʻlagisi keldi.

- Nima, Mabiyingiz osmondagi oymi? Hammaga oʻxshagan bir qiz-da. Sizning ham kamchilik joyingiz, yoʻq. e, uch yildan beri ogʻzingizga talqon solib yuribsiz-a, tavba! Borib, “Mabiyi, sizda ikki ogʻiz gapim bor edi”, deb gaplashib olish shuncha qiyinmi? Harholda, uch yil qiynalib yurishdan kora osonroqdir.

Karimning koʻnglida notayin, umidsiz ogʻriq yana turdi.

— Yo Mabiyinga oʻzim aytaymi?—dedi Adham.

Karim chʻochib ketdi.

— Yogʻ-e, nimalar deyapsiz,— dedi u shosha-pisha, xuddi Adham hozir Mabiyingning oldiga boradigandek.— Nima deb oʻylaydi, axir!

— Boʻlmasa, oʻzingiz borib ayting-da.

— Xat yozsammikan?—dedi u yurak yutib.

Adham zaharli iljaydi — bir zumda Karimdan uzoq-uzoqlarga ketib qoldi.

— Xat?! ~azal yozib bera qoling, “Ishqingda zor oʻldim, netay”, deb. U ham sizga “Kel, gʻaribim, oʻldim mano”, deb javob qaytaradi.

“Muncha tili achchiq buning!”— Karimning gʻashi keldi.

— Kulmang! :

— Kuladigan gapni aytyapsiz-da,— dedi Adham sal yumshab.

— Boʻlmasa, nima qilay?—dedi Adham ezilib.

— Menga qarang,— dedi Adham.— Nima, tilingizga tirsak chiqqanmi? Boyadan beri eshakning qulogʻiga tanbur chertyapmanmi!

Karim oʻzi kutmagan holda zorlanib ketdi:

— Qachon borsam xonasida odam boladi. Oʻzi otirgan vaqtida endi gapiraman, desam, birov kirib qoladi. Oʻtirib-otirib qaytib kelaveraman. Oʻzi kopham boravermayman-ku-ya. Hayit aka kop borar ekan.

— Xosh?—deb ajablendi Adham.—Hayit borsa nima bopti?

Karim oʻngʻaysizlanib qoldi.

— Bilmasam, u ham Mabiyinga...

— E, sizda kalla bormi ozi?—dedi Adham.— Elkaning ustida nimani kotarib yuribsiz? Hayit uni... Mabiysi uni boshiga uradimi? Hayitning Gulnorasi unga qarindosh-ku, shuni ham bilmaysizmi?

Karim izza bo'ldi.

— Burhon... bugun shunaqa deb...

Adham qo'l siltadi.

— E, qoysangiz-chi. Odam quriganday, shu maxsimchaga ishonasizmi?

Karimning kongli sal yorishgandek bo'ldi. Adham sukut saqlab turdi-da:

- Hozir nima qilishyapti ekan?—dedi.

— Kimlar?—dedi Karim.

— Kimlar bo'lardi?—dedi Adham.— Mabiylar-da.

— Nima edi?—dedi Karim.— Uxlashyapti.

Adham Karimga tik qaradi:

— Hozir borib Mabiyaning boshqasini chiqarib yuborsam... aytasizmi?

Karimning tizzalarigacha titroq tushdi.

— Hozir-a? e, yoq, bo'lmaydi.

Adham o'zini hayronlikka solib, qo'llarini kerdi:

— Nega bo'lmas ekan?

Karim indamadi. Adham chuqur nafas oldi:

— Ertaga-chi?

Karim Adhamga mung'ayib qaradi.

— Karimboy, jora,— dedi Adham.— Shu bitishli xotin ham og'il tug'adimi, degan gap bor. Bu lattachaynarligingizdan ma'nili ish chiqmaydi, og'aynichalish. yo borib Mabiyaning ochiq ayting, yo undan tamom voz keching. Bunaqa rezinkadek cho'zmang.

— Mayli,— dedi Karim birdan.

— Bugunmi? — Adhamning tovushida g'alatn, yoqimsiz bir quvonch bordek edi.— Xosh?

— Yoq, bugun emas,— dedi Karim bog'iq ovoz-da.— ertaga. Maylimi?

Tun—uzundan-uzun - yo'l, qirrali toshlar qizib-chatnab yotgan toshloq azob edi. Karim ana shu yo'ldan har qadamda bir qoqilib-yiqilib ketaverdi.

Mohbibbi goh Karimni entiktirar, goh teskari qarab, Hayitmi yo shunga oxshagan birovningmi elkasiga bosh qo'yib g'amzali kular, goh Karimga yalinar, goh Qarimni yalintirar edi.

Bu qaynoq, telba-teskari xayollar uzra yaratganning ozi kabi loqayd, mag'rur Adham kresloda oyoq chalishtirib, uch-tort joyidan buklangan isfihondek vahm solib otirar edi.

Shu kecha Karimning Mohbibini haqida oylagan neki oyu-xayoli bo'lmasin, hammasi Adhamga urilib, parcha-parcha qirqilib ketaverdi.

Hovlidagi vodoprovod jomragi tuni bilan jirillab chiqdi.

Tomdagi mushuklar ikki marta nag'ma korsatdi.

Karim uxlab-uxlayolmay, mudroq yotganda Burhon uni turtdi, lekin u hozir turishini, nonushta qilishini, songra tiqilinch avtobusda institutga borishini, u erda Mohbibini korishini, ayniqsa, Adhamning suyak-suyakka qadaladigan nigohiga duchor bolishini oylab, kuzini ochmadi: jorttagacha elovsirab, devorga ogirilib oldi.

Burhon yuvinib keldi, qirtillatib soqol oldi; tarandi, sochi dag'al edi, taroq tekkanda chisirladi. Karim buni aniq eshitdi, negadir kongli g'alati bolib ketdi. Burhon uzoq nonushta qildi: choyni piyolaga qulqullatib quydi, xorillatib ichdi, og'zini chapillatib non edi, ustma-ust tomoq qirdi, yotaldi—Karim bu tovushlarning barchasini tinglaganicha ijirg'anib yotaverdi.

— Ho, Karim,— deb chaqirdi Burhon.— Birinchi para — Hakimova. Turing, kech qolasiz.

Karim kuzlarini qattiqroq yumib oldi: Hakimova domla uni ossa osib yubora qolsin.

— Ozingiz bilasiz,— dedi Burhon.

Burhon chiqib ketganidan keyin Karim kuzini ochdi.

Havo qandaydir bog'iq, og'ir; derazadan korinib turgan osmon tussiz edi.

Karim tashqariga chiqib, ancha vaqtgacha zinada mudrab otirdi. Keyin sakrab turdi-da, hovlini gir aylanib chopa boshladi, uzoq chopdi. Songra badantarbiya bilan mashg'ul bolde: barcha bilgan usullarini qaytaqayta takrorladi; tanasining turli-tuman joylaridagi muskullarini pishituvchi mashqlar bajardi, ikki qoliga tiralib, sanab, ottiz marta yotib turdi. A'zoi badaniga ter kopchigach, be-ligacha yalang'och bolib, pishqira-pishqira rosa yuvindi.

Karim bu orada Mohbibini, Adhamni, bugungi bolajak uchrashuvni oylamaslikka tirishdi.

Stol ustida anchagina kolbasa, sariyog', uch-tort chaqmoq qand, yumshoqqina non qolgan ekan, Karim qandning hammasini choyga solib, ajabtovur ishtaha bilan nonushta qildi. Keyin tanasida yoqimli horg'inlik his ztib, karavotga chozildi.

Oylagan oyining ma'nisiga ham bormay, bir oz yotganini biladi, keyin kuzi ilinib, dong qotibdi.

Karim kuzini ochganda ustiga oftob tushgan edi. Havo ochilibdi. Vaqt tushdan og'ib otib, soat millari tortga yaqinlashib borar edi.

Karim uyquga t6ygan, tiniqqan, ta'bi ravshan tortgan edi. B6lajak uchrashuv uning xayolida mavhum bir narsadek tiklandi.

Borib Mohbibibi bilan gaplashgandan kora, oqtoq qoplaman issiqqina korpa tagida rohatlanib yotish ming karra yaxshiroq edi. Kerak b6lsa, Mohbibining 6zi kelsin, Karimdan “Meni sevasizmi?”, deb sorasin. Oh, qani edi shunday b6lsa! Karim korpadan chiqmay, bosh irg'aganqa tasdiqlab qoya qolar-di. yo boshini sal kotarib, Mohbibiga qarab jilmayib... Lekin Mohbibibi sira kelmaydi-da — Karimning 6zi borishi, bugun, hoziroq borishi kerak. Qayoqdan ham shu Adham aralashdi?

Borish kerak. Bormasa b6lmaydi. B6lmas ekan! Adham sovuq b6lsa ham, mard yigit. Rost, sudralib yurishdan ish chiqmaydi. Lattachaynarlikdan ish chiqmaydi, og'aynichalish. Tavakkal-da! Ha, Mohbibibi unga qaramasa, shu bilan dunyo tugab qoladimi, hayot toxtaydimi? Undan yaxshiroq qiz qurib ketibdimi! Karim hali yosh b6lsa, a'lo 6qisa. Kim biladi, kelajakda institutlarda ishlab, kotarilib ketadimi? Mohbibibi-chi, albatta qishlog'iga ketadi-da, boshqa qayga ham boradi. Qiz bola-da, dodini kimga aytadi. Qishlog'iga borgandan keyin traktorchiyami, suvchiyami, juda baxti chopsa, adabiyotning “A” harfini ham bilmaydigan agronommi yo piyonista mol doxtiriyami berib yuborishadi. Besh yil shaharda 6qigan qizni hamma ham ishonib, jon deb olavermaydi. Keyin Mohbibining 6zi pushaymon eydi. “eh, 6shanda Karimdek yigitning konglini og'ritib katta ahmoqlik qilgan ekanman, tuzatib b6lmas xatoga yo'l qoygan ekanman”, deb umr boyi ezilib 6tadi. eri b6lsa har kuni kirlab, terdan tarashaday qotgan ko'ylagini echib 6tadi-da, kitob 6qib 6tirgan Mohbibiga: “Hey, xotin! Mabiyyi, deyapman! He biyingni... etikni tort, yig'ishtir bayti-g'azalingni, choyni opke!”, deya sansirab bokiradi... Zamon aylanib, Karim 6z mashinasida, yoq, davlatning xizmat mashinasida madaniy ahvolni tekshirgani ularning Sariosiyosiga borib qoladi; shundoq muyulishda rulni burayotib, chelak kotargan, ozib shaftoliqoqiday b6lib qolgan Mohbibiga ko'zi tushadi. Mohbibibi ham uni ko'rib, turgan joyida, ko'zida yosh, qotib turaveradi.

E, shundan boshqa gap qurib ketibdimi! Mohbibining baxtsizligi uning ham baxtsizligi emas-mi? U ham azob chekmaydimi, ezilmaydimi? Keyin, Mohbibibi ham juda ko'chada qolgani yoq. Agar tegaman, desa, hamma ham noz qilavermas. Adhamning-ku yo'li boshqa, lekin shu Burhonchanning 6zi pitirlab qolsa kerak — solakayi 6qib turibdi-ku, istarasi issiq, puli ko'p, 6tasi sovxoz direktori, deb.

Borish kerak. Adhamga va'da bermaganda, u bilmaganda, boshqa gap edi. Bormasa, u Karimni qorqoq deb 6ylaydi. Karim qorqoqlardan emas. Qani, borsinchi, keyin bir gap b6lar-da, axir.

Yotoqqa yaqinlashgani sari Karimning oyoqlari og'irlashib, bosgan qadami orqaga ketaverdi. Goyo hamma derazalardan uni kuzatib turishgandek, boshini kotarishga jur'at qilolmadi.

Zinalar buncha ko'p!

Dahliz buncha sirli, buncha diqqinapas, buncha vahimali!

Karim zinalardan kotarilib olgach, tortinchi qavatning dahlizida turib qoldi: tog'ri Mohbibilarning xonasiga borsami yo oldin Adhamga uchrab otsami? U balki Karimning kelishini kutib, hali qizlarni chiqarib yubormagandir.

Karim Adhamning eshigini ochdiyu ostonada qotdi: Tursunoy uzala tushib yotgan Adhamni quchoqlab otirar edi!

Tursunoy sapchib turdi, sarosima bilan yoqasini tog'rilab, Karimga oqrayib tikildi.

Adham bamaylixotir "Keling", deya ornidan qoz-g'alayotgan edi, Karim burilib, sekingina eshikni yopdi, allanechuk qaltiradi, nimagadir alami keldi. Orqasidan Adhamning "Karim!", degan g'alati mehribon ovozi va Tursunoyning asabiy qiqirlagani eshitildi.

Behayo! eshigini bekitib olmaydimi!

Goyo hech gap bo'lmagandek, Adham chiqdi.

— Sizni deb, mana, bittasini ovuntirib otiribman,— dedi u Qarimning elkasiga qolini qoyib,

Karim o'zini juda ojiz, baxtsiz his qildi. Adhamning qo'li tagida elkasi ezilib ketayotgandek bo'ldi.

— Boring,— dedi Adham shivirlab.— Xonasida yolg'iz otiribdi. Birov kirib qolmasidan... Nega kechikdingiz? Mayli, boring.

Karim ketdi. To Mohbibilarning xonasiga etguncha ortiga ogirilishga jur'at qilolmadi: Adhamning nigohi uning elkasiga qosh nayzadek tiralib borar edi. eshikni taqillatishdan oldin burilib qaradi: Adham yugurib chiqqan Tursunoyni ichkariga itarib yubordi-da, ortidan o'zi ham ki-rib ketdi.

Karim eshikni sekingina chertdi, nafasini ichiga yutib, quloq tutdi - jimlik. yana chertdi. Karavotning g'ijirlagani eshitilib, Mohbibining "Kiravering", degan jinday hayajonli tovushi keldi. Karim elimlab qoyilgandek, joyidan jilolmadi.

Eshikni Mohbibining o'zi ochdi. Karimning tiliga gap kelmadi, u garang, gung, kar edi, faqat ko'zlari ochiq; boshini quyi solganicha Mohbibiga ergashib ichkari kirdi.

Karim birinchi sezgan narsa — qizlar xonasida paydo bo'ladigan hid bo'ldi: qandaydir quyuq, yopishqoq...

Karim egilib boshmog'ining bog'ichini boshatdi, lekin echmay, shundoq eshikka taqalgan karavotga otirib oldi.

Na Karimdan gap chiqdi, na Mohbibidan.

Karim Mohbibiga qarashdan qorqib, tog'riga —eshigi ochiq shkafga ko'z tashladi: shkafda ikki-uchta koylak, yashil yomg'irposh, bitta yigitlarning kostyumi (kimniki bo'lsa), uning yonida esa sarg'ish ichkoylak osig'liq edi. Albatta, Karim birinchi bo'lib shu ichkoylakni kordi. Bir zum oylandi: ichkoylak kaltagina edi, bu xonada turuvchi Mohbibidan boshqa qizlarning hammasi boychan

edi, Karimning yuragi gumurib ketdi-da, ichkoylakdan k zini olib qochdi, lekin ichkoylak yana  ziga qaratdi. Mohbibuni sezib qoldi shekilli, ildam turib kelib shkafni yopib qoydi.

Karim yalt etib Mohbibiga qaradi, Mohbibuni ham qizarib ketgan edi, yuzini teskari burdi.

Endi Karim gapirishi kerak edi.

Lekin qizlarning nafasi, atir-upa, kiyimlarning, burchakdagi kir-chir chelakning ishi qorishib ketgan bu hid Karimning dimog'iga qattiq orna-shib, shusiz ham gapga kelmayotgan til-jag'ini bog'lab turar edi.

Qarim Mohbibiga qaramasa ham, k z qirida uning bir necha marta sabrsiz nigoh tashlaganini sezdi.

Ancha vaqt otdi shekilli, Qarimning tomog'ida nimadir g'oldirab;

— Shu-u-u,— degan tovush pishillab chiqdiyu birdan  chdi.

Mohbibuni  tirgan karavot g'ijirladi, Karim battar bukchayib ketdi.

Karim afsun qilingandek, mutlaqo tilday qolib, og'ziga talqon solib oldi.

Nega Mohbibuni indamayapti?

Karim Mohbibining nega bunday  tirganini,  zining nima maqsadda kelishini Adham oldindan aytib qo'rganini anglab etdi. Angladi-yu, hozir, xud-di shu topda Mohbibidan,  qishdan, shahardan — hamma-hammasidan voz kechib, topa-tog'ri qishlog'iga piyoda qochib ketgisi keldi. Ayniqsa, qizlarning hidi gupillab urib turgan shu xonaga chopib chiqqisi keldi.

Lekin buning  rniga boshini tizzalari qadar egib, boshmog'iga tikildi. Qong'ir rangi uniqib,  qarib qolgan boshmog'i asta-sekin kattarib borayotgandek tuyuldi. Moylash kerak ekan, esidan chiqibdi.

Mohbibuni yotaldi. Yoq, ataylab emas, shamollaganga  xshaydi.

Jimlik juda bahaybat, vazmin bir narsaga aylanib, Qarimning boshidan bosdi. Karim hozir gapirishi kerakligini, hozir gapirmasa, keyin kech b lishini bilib tursa ham, tili aylanmas, buning  rniga gavdasi og'irlashib, quloqlari shang'illar edi.

“Burnim qonab ketmasin, ishqilib”, deb oyladi u.

Boshini tizzalari orasiga olib, qattiq qisgisi keldi uning.

Yana qanchadir vaqt otdi.

Mohbibining karavoti yana g'ijirladi — u  tir-gan joyidan ch zilib, deraza tokchasidagi kitobni ochishdan oldin Karimga bir zum tikildi. Karim buni ham sezdi. Kitobning varaqlari shildiradi. Karimning ichidan nimadir kotarilib kelib, hiqildog'iga k ndalang b ldi; kutilmaganda undan tovush chiqdi:

— Mabiyyi...

Ovoz juda mayin, notavon edi — xijolat tortganidan Karimning boshi tizzalari orasiga tushib ketdi.

O, shunday paytlarda birdan uchib ketsang, ertaklardagidek turgan joyingda yoq bolib qolsang!..

Anchadan beri koksini changallab yotgan og'riq birdan tashqariga otildn — bog'iq, beshafqat:

— Mabiyl!.. Ishoning! yaxshi koraman sizni!

Birdan boshi engillashib, bom-bosh bolib qoldi — u qaddini rostlab Mohbibiga qaradi.

Mohbibni kitobni ikki qollab tutib, ko'zlarini katta-katta ochgancha, Karimga tikilib otirgan adi.

— Mabiyl?—dedi Karim negadir yuragi shuvillab.— Nima deysiz?

Mabiyl o'zgardi; yuzida, qalin lablarida qotgan tabassumga oxshash o'lik bir ifoda suratlandi, ko'zlariga Karimga mutlaqo yot bir befarqlik qalqdi,

Karimning yuraklari ezilib ketdi, shunda ham umid uzmay Mohbibiga termildi.

— Mabiyl? Mabiyl!

Mohbibni bosh chayqadi — buning ma'nosi o'z-o'zidan ayon edi: tamom, hammasi tamom bo'ldi! yomon bo'ldi, juda yomon!

Hali dahanaki jangning urishishgacha borib etmasligiga umid qilib turgan bir paytda daf'atan tushirib qolingani mushtdan song kotariladigan alamli bir g'azab Karimning kongliga ormalab kela boshladi.

— Karim, qo'ying, kerak emas shunaqa gaplar,— deb nihoyat tilga kirdi Mohbibni.

Karimning songgi umidi chirs etib ochdi.

— Yoqmi?—dedi u.

— Qo'ying.— Mohbibining ovozi Karimning konglini yoqimsiz tirmaladi.

Karim otilib turganicha Mohbibining yoniga borib qolganini bilmadi.

Mohbibni unga qarab qorqib ketdi.

— Mabiyl, yoqmi, deyapman?—dedi u hansirab.

Mohbibni sekin bosh chayqadi.

Karimning ko'z oldi qorong'ilashib, xuddi yiqilib borayotgandek, Mohbibining elkalaridan ushlab oldi.

— Menga qarang,— deb ihrandi.— Menga qarang deyapman!

Mohbibining elkalari to'la, qattiq edi, Karimning qo'llari botmadi,

Mohbibi uning qolidan chiqishga urinib, yulqindi, boshini kotarib g'azab bilan tikildi. Karim ham undan ko'z uzmay, elkalarini qattiqroq changalladi.

Kitob polga tushdi.

Mohbibi birdan:

— Qoy-yi... Qoy, deyaqman senga,— deb chinqirib yubordi.

Shu onda yovvoyi g'azab Karimning bog'ziga changal soldi, havo yollarini tosib qoydi.

Karim Mohbibining elkalarini qoyib yubordi, keyin... birdan qulochini kerdi-da, Mohbibining yuziga shapaloq tortib yubordi. yana nimadir boldi shekilli, Karim zarbani Mohbibi emas, ozi egandek qalqib ketdi.

Mohbibi karavotga ag'anab tushgan, ko'ylagi yuqoriga sirilib, oyoqlari ochilib qolgan edi.

Xona chir-r aylanib, Karimga eshikni ro'para qildi.

Uzun koridor... Ortidan ta'qib etib, elkasiga paydarpay gursillab qoqilayotgan qadamlar — o'zining qadamlari; cho'chinqirash, qiziqsinish, hadik bilan chetlanib, lipillab qolayotgan yuzlar, qizg'ishqoramtir yolak, daraxtlarning g'adir-budur tanalari — Karim o'ziga kelib qarasa, shusiz ham kimsasiz parkning xilvat burchagiga, ko'zyoshlari tomog'iga tiqilib, hirqiragancha yomon, juda yomon so'kinib boryapti.

U taqqa toxtab, atrofga olazarak alangladi.

Ko'z oldiga Mohbibining qorquvdan kattarib ketgan ko'zlari keldi.

U yaqindagina boyalgan o'rindiqqa behol cho'kdi.

O'rindiqdan sal naridagi halqobchaga bir top chumchuq qondi; biri qanotlarini kerib chirilladi.

Mohbibini urganda jimjilog'i uning og'ziga kirib, tishlaridan siyralib otgan edi, Karim birdan shuni eslab, jimjilog'ini, goyo o'shandan beri ho'ldak, kaftiga artdi. Ko'z ongiga Mohbibining karavotda ag'anab yotgani, semiz sonlarining juda ayanchli tarzda ochilib qolgani, ko'ylak tagidan pistoqi ichko'ylagining titila boshlagan oqish tor hoshiyasi chiqib turgani kelib, ingranib yubordi-da, qollarini asabiy siltadi.

Chumchuqlar gur-r kotarilib, nariroqqa tushdi. Uch-tortta — botirroqlari, chanqovi bosilmagan chog'i, dik-dik chopchib, halqobchaga yana yaqinlasha boshladi.

Oh, shu ish bo'lmaganda edi! Karim yomon tush korayotgandek, hozir birdan sachrab uyg'onib ketganda edi!

Karim sakrab turdi.

Chumchuqlar birdan kotarildi.

Ijaraxonaning eshigi lang ochiq edi. Tamaki tutatib otirgan Adhamni korib, Karimning yuragi orqaga tortib ketdi.

— Qaerlarda yuribsiz!—dedi Adham.

Yoniga borsa, Adham uni urib yuboradigandek, Karim toxtab qoldi, boynini elkalariga toshbaqa singari tortdi, qunishib oldi.

— Eshshak ekansiz-ku!— dedi Adham oqrayib. Karim haqiqatan ham “eshshak” ekanligiga birdan kondi.

— Siz tonkani ikki soatdan beri poylab otiribman-a!

Karim tonkalikka ham rozi boldi. Faqat hozir Adham uni ayamay sokaversa, sokaversa... yoki hovliga sudrab chiqib, loyga dumalatib, big' illatib tepsa...

Lekin Adham birdan yumshadi:

— Otsangiz-chi. Nega qoqqan qoziqday turib qoldingiz?

Karim otdi.

— Nima boldi ozi?— dedi Adham.— Nima qildingiz?

Karim indamay erga boqdi, keyin Adhamga moltiradi, yana erga qaradi.

— Gapirsangiz-chi,— deb betoqat boldi Adham,— Sizga aytyapman, gapirsangiz-chi!

Karim boshini burib, derazaga tikilib oldi. Nima deb gapirishni ham bilmadi.

— Bunga bir gap bolganmi ozi?—dedi Adham qollarini kergancha yonboshga ogirilib — xuddi hujrada uchinchu bir kishi ham bordek.— Qiz bolani urib, yana...

Pichoq Karimning koksiga qadaldi.

— Qipqizil ahmoq ekan-ku bu,— dedi shafqatsiz Adham.— Bechoraning jag'i shishib ketibdi-ya! Og'il bolamidiki, shunday ura... yo Mabiya bilan mushtlashishga boruvdingizmi?

Pichoq qir-rt etib Karimning yuragini teshib otdi. Lekin Karim olmadi, aksincha, miyasida yarq etib najot — hammasidan birato'la qutulish yo'li ochilib ketdi:

- Ketaman!

— Qayoqqa?— Adham istehzoli kulimsiradi.

— Oqimayman! e, hammasini!..— Birdan Karimning ko'ziga yosh qalqib, tomog'i hirqirab qoldi.— Ketaman.

Adham unga tikilganча angraydi:

— Chiningizmi?

— E, oqishini ham, qizlarni ham...— Karim battar jazavaga tushdi, kozyoshlari tirqirab ketdi. — Hoziroq ketaman!

— Esingizni eb qoyibsiz,— deb takrorladi Adham.— esingizni eb qoyibsiz.

Karim Adhamga alam bilan qaradi, ketsa, ozidan, ozidan ham kora Adhamdan boplab och oladigandek, battar xuruj qildi:

— Kerak emas. Hech narsa kerak emas, Borib traktor haydayman, arava qoshaman, gong tashiyman, gong! Hammaga bunaqa sharmanda bo'lgandan kora... Qishloqda bulardan ming marta yaxshi qizlar bor.

Adham tosatan kulib yubordi.

— Voy tentak! Majnunvoyni qara!—Adham kulishdan taqqa toxtadi, ko'zlari qisilib, berahm tus oldi.— Bopti, yig'ishtiring narsalaringizni! Jonang!— Keyin Karimga tomon egilib, uning elkasiga shap etib tushirib qoldi.— Turing. Kran tagiga bir narsa tashlab qoyganman. Ketar jafosiga tortasiz. e, kalla!

Karim “Ketaman” degan gapni hadeb qaytaraverishdan qutulganiga bir oz engil tortdi.

“Ha, shum-ey!—deb oyladi Karim, shishaga ilashgan loyni vodoprovod jomragida yuvar ekan.— Bari bir yaxshi bola-da. Sovuq bolsa ham, odamning konglini og'ritsa ham yaxshi!”

Adham ularning ijaraxonasiga bungacha sira kelmagan edi.

— Karim,— dedi Adham sigaret tutatib olishgandan keyin.— Bir gapning tog'risini aytaymi?

“Hozir yig'laganimni aytadi!”, deb oyladi Karim yuragi ivishib.

— Nimani?

— Xafa bo'lmaysizmi?

“Ko'zyosh tokish xotinlarning ishi, deydi. Mayli, desa depti-da!”— Karim o'ziga ham notanish xotirjamlik tuydi.

— Yo'q, xafa bo'lmayman. Sizdan xafa bo'lmayman.

— Shu bugungi ishni...— Adham gapidan toxtab, Karimga tikildi.

Karimga Adhamning nigohi uni teshib otib, ortidagi bir narsaga qattiq botayotgandek tuyuldi.

— Shuni,— dedi Adham hamon Qarimdan ko'z uz-may,— men uyushtirdim.

Karimning oyog'i oltidagi taxta pol qayoqqadir surilib ketayotgandek bo'ldi.

— Qanaqasiga?

— Shunaqasiga-da,— dedi Adham.— Shu bola arzimagan qiz uchun xor bo'lib yuradimi, kel, shartta orasini uzib tashlayman, dedim.

Karim ilon avragan qurbaqadek, og'zini kappa-kappa ochdi, yana tili aylanmay, ichidan hirqiroq tovush keldi.

— Nega?

— Negaligini bugun kordingiz,— dedi Adham nihoyat undan koʻzlarini olib.— Mabiysi sizni yomon koradi. Qizlar oʻzlari suymagan yigitlarni yomon koʻrishadi. Siz buni bilmasdingiz. Bugun bildingiz. Bilishingiz kerak edi. Buyogʻi yaxshi boʻladi.

Lekin hozir Karimga yaxshi emasdi. Sira yaxshi emasdi. Uning koʻksini yana nimadir kuydirib otdi, oʻtgan joyi yomon iz qoldirdi:

— Quying,— dedi Adham.— Hozir tushuntiraman. Menga ishonavering. yomon niyatda qilmadim. To bitirguncha unga ilakishib yuraverar edingiz, ammo biron ish chiqmasdi.

Karim piyolani changalladi.

— Qani!—dedi Adham.— Sizning bugungi kundan ozodligingiz... Nega bunasa qaraysiz?

Karim Adhamdan koʻzini olib, qolidagi piyolaga tikildi, piyola titrayotgan edi.

— Hali ham tushunmayapsizmi?

— Yoʻq, ochigʻi tushunmayapman,— dedi Karim gʻoldirab.— Shuni oldin toʻgʻri oʻzimga aytsangiz boʻlmasmidi?

— Mayli, keyin... Aytsam ham boʻlardi,— dedi Adham.— Bundan osoni bormi! Lekin menga ishonmas edingiz, ishonsangiz ham...

Karim oʻzini kamsitilgan his qilib, xoʻrligi keldi.

— Nega, axir? Men shunaqa...

Adham bosh chayqadi.

— Negaligini bilmayman-u, lekin menga ishonsangiz ham... Bunaqa masalada birovning aytgani, aralashgani bilan ish bitmaydi. Aytganim bilan, bari bir, kongil uzmay yaxshi koʻrib yuraverar edingiz. Birovning gapi bilan ajralib ketadigan boʻlganingizda... Siz uni sevasiz-ku.— Adham yana bitta sigaret tutatib oldi.— Lekin, shu qiz sevisga arzimaydi.

— Nega unaqa deysiz?—dedi Karim bu gapdai engil tortgan boʻlsa ham.

Adham qoʻl siltadi.

— Mayli, hovuringiz bosilgandan keyin oʻzingiz bilib olarsiz. Hali uni unutasiz, unutganingizdan keyin hammasi oydin boʻladi.

Adham piyolaning tepasidan changalladi, paylari oynab ketdi. Keyin birdan Karimga qarab:

— Sizga havasim keladi,— dedi.— Nega menga bunaqa qaraysiz?

— Nimaga? Bugungi ahvolimgami?— dedi Karim, garchi Adham bu oyda emasligini, juda muhim gap aytmoqchiligini sezib, birdan hushyor tortgan boʻlsa-da. Uning ichida toshga oʻxshagan bir qattiq narsa eriyotgandek boʻldi.

— Rost,— dedi Adham,— shunday boʻlmaganda sizni axtarib kelmasdim.

Karim toʻlqinlandi, tomogʻiga allanarsa tiqildi.

— Tirik odamsiz-da,— dedi Adham.— Menga oʻxshamaysiz — siz yaxshi koʻrasiz. Mayli, shu Mabiychani boʻlsa ham, yaxshi koʻrasiz. yashayapsiz!

— Siz-chi!—dedi Karim.— Qaysi qiz sizga...

— Yoʻq, buni sizga tushuntirolmayman,— dedi Adham birdan tundlanib.— Umuman, sevmay yashash yomon, demoqchiman. Odamning koʻngli oʻladi. Oʻlik koʻngil bilan yashash qiyin.

Adham hozir juda chiroyli koʻrinardi: oqarinqiragan, choʻzinchoq yuzi, peshanasiga tushgan, salgina yiltirab turgan sochi, ma'yus chaqnayotgan koʻzlari, qirra burni, tekis bichimli lablari, oʻrtasi salgina puchuq iyagi, uzun boʻyni, kulrang, ohorli koʻylagi — bor koʻrinishi jonli haykaldek, Karimni sehrlab, olam-jahon havas, qandaydir iliq hasad uygʻotar edi.

— Ba'zan yigʻlagim keladi,— dedi Adham roʻbarosidagi bitta Karimga emas, balki yuzlab sodda baxtli karimlarga qarab.— Ammo yigʻlolmayman — diydam qotib ketgan. Hatto yigʻlashni ham odam sogʻinar ekan...

Adham koʻp gapirdi, lekin Karim hech baloni tushunmadi: “Tavba, bunga nima etishmaydi? Boydan, chiroydan, gapdan bergan boʻlsa? yuragi soʻqqaboshligi nimasi?..

Qorongʻi tushdi. Derazadan salqin elvizak kirdi. Karim derazadan boshini chiqarib tepaga qaradi: osmonda yulduzlar bodroqday sochilib ketgan, juda koʻp edi. Karim koʻp yillardan beri birinchi marta osmonga orzu qilmay qaradi.

— Burhon kelmadi. yotoqda qoldi,— dedi.

— Kep qolar,— dedi Adxam.

— Yoʻq, kelmaydi,— dedi Karim.— Kechasi yurishdan qorqadi.

— Nega? yosh bolamidiki?

— Kim biladi?— Karim kiftini uchirdi.— Bu erda ham bir oʻzi yotolmaydi. Qorqishini mendan yashirmoqchi boʻladi, lekin men bilaman. Shu uchun uni yolgʻiz qoldirmayman.— Karim kuldi.— Qizigʻ-ey, oʻlguday xasis, pul soʻrasam, kunduz kuni bermaydi. Lekin oqshom soʻrasam, beradi.

Adham juda ajablandi.

- Rostdanmi?

- Rost,— dedi Karim.— Lekin ertalaboq kecha berganimni qachon qaytarasiz, deb sorab oladi.

— Qiziq ekan!—dedi Adham.

— Qiziq,— dedi Karim ham.— Bu Burhon...

Burhon haqida gapirishgani sayin Karim ochilib borardi. U negadir shu choqqacha Burhonni shu qadar yomon korishini bilmagan, oylab ham kormagan ekan, endi esa uni ishtiyoq bilan yomonlay ketdi. yomonlagani sayin kongli yorishib, o'zini yaxshi odam hisoblardi. "Men Burhondan qanchalar yaxshiman", deb oylardi.

Adham shu erda tunab qoldi. U Burhonning kir korpasiga ijirg'anib qaragan edi, Karim unga toza korpasini berdi.

Karim uzoq vaqt uxlay olmadi, korpadan Burhonning isi kelar, goyo korpa ham egasiga o'xshab xasislik qilar, Karimdan issig'ini qizg'anayotgandek bo'lardi.

Oy chiqdi, derazadan korindi, Adhamning yuzini yoritdi: Adham uxlab yotganida pish-pish nafas olar, yuzi ham muloyim tortib, himoyaga muhtoj yosh bolaning xuddi o'zi bo'lib qolar ekan.

Karim hozir ornidan turib, Adhamning yoniga otirgisi, hech bo'lmaganda ustidagi korpani tog'rilab qoygisi keldi, lekin Adhamning uyg'onib keti-shini, uyg'oq paytlarda o'zi bilan qanday gaplashishini ko'z oldiga keltirib, yuragi betlamadi.

Lekin, bari bir, Adhamning shu yotishida himoyaga muhtoj yosh godakni eslatadigan nimadir bir narsa bor edi...

Karim ko'zini yumdi:

"Ertaga ertalab, albatta, Adham ketganidan song, Mohbibi kelsa... "Karimjon, meni kechiring..." Karim quvonib ketadi-yu, lekin sir boy bermaydi. Mohbibi goyo yarashmoqchidek, uning pinjiga tiqiladi, qo'llarini silaydi. Karim uni itarib yubormaydi, ammo yuzini teskari burib oladi. Mohbibi uning mushtumini yozmoqqa urinadi, "Qo'llaringiz muncha qattiq!", deydi. Shunda Karim erib ketadi-da, yolg'ondakam popisa qiladi, shu bilan bugungi qilmishi uchun kechirim soraydi: "Mana, shu qo'lmi? Sizga ko'tarilgan mana shu qo'lni karavotning tutqichiga bir urib sindirib tashlaymi?" Karim qo'lini siltab tutqichga urmoqqa chog'lanadi. Mohbibi esa rostdan ham qorqib ketadi. "Yo'q, yo'q,— deydi u yig'lamsirab.— Nega? Axir, shu qo'lingiz mening aqlimni kiritib qoydi-ku!" Mohbibi uning qo'lini opib qoyadi..."

Karim shu payt beixtiyor o'zining qo'lini g'alati bir tashnalik bilan opdi va birdan o'ziga keldi; hozirgi ahmoqona orzuning hech qachon amalga oshmasligini oylab g'ijinib ketdi, qo'lini qattiq tishladi...